

TALABA YOSHLARDA BADIY – ESTETIK DIDNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY PSIXOLOGIK SHART – SHAROITLARI

Yesenova Nursaule

Navoiy davlat pedagogika instituti “Pedagogika nazariyasi va tarixi(faoliyat turlari bo‘yicha)” mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya.: *Ushbu maqolada talaba yoshlarda badiiy estetik didni shakllantirish usul va vositalari, estetik madaniyat tushunchasi va uning ijtimoiy vazifalari, estetik madaniyatning yurtimizda shakllanish yo‘nalishlari, talabalarning estetik ong va estetik faoliyatining shakllanishida oila va ta‘lim-tarbiyaning roli, estetik didni shakllantirish usullari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *badiiy estetik did, estetik madaniyat, estetik ong, estetik mas‘uliyat, estetik xulq-atvor.*

Estetik madaniyat milliy ongni, ma‘naviy uyg‘onish va taraqqiyotni nazarda tutuvchi omillardan biri bo‘lib, bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Shu bois talaba yoshlarda badiiy estetik didni Shakllantirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Xususan, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida asosiy maqsadlardan biri sifatida yoshlarning badiiy-estetik didini yuksaltirish masalasiga ham alohida urg‘u berilgan.⁵

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham talabalarni adabiyot, san‘at va sportga, sog‘lom turmush tarziga jalb etish, ularda estetik did va kasbiy etika, axborot tahlili madaniyatini shakllantirish, vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish bo‘yicha ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqish va barcha oliy ta‘lim muassasalarida mazkur chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta‘minlashga dolzarb masala sifatida e‘tibor qaratilgan.⁶

Estetik madaniyat — bu inson ehtiyojlarining murakkab tizimi bo‘lib, unda odamzod hissiyotlari, malakalari, ko‘nikmalari, bilimlari, me‘yorlari, maslaklari bir-biri bilan chambarchas bog‘langandir. Chunonchi, estetik hissiyotlar insonning hayot faoliyati joshqin ekanligini bildirsa, me‘yorlar ijod va faoliyatning mezonga solinishi vositasini anglatadi; bilimlar esa insonning dunyoqarashini, ishonchini, estetik

⁵ 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son)

⁶ O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi pf-89-son [farmoni](#) tahririda* — qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son

baholashning yo'nalishlarini, didlarini, qarashlarini belgilab beradi. Estetik munosabatlar odamlarni, ularning faoliyatidagi turli qarashlarni, shakl – shamoyillarini ma'lum bir maqsadga qaratadi.⁷

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi — jamiyat a'zolarining har tomonlama mukammal rivojlanishlari uchun go'zallikni to'laqonli his etishga ko'maklashishdan iboratdir. Estetik estetikamadaniyat san'at adabiyotdangina ong qarashlar bir qatorda, iqtisodiy va munosabatlar turmush va texnika, sport va milliy urf – odatlar ham nafosat tarbiyasining nihoyatda muhim omillaridandir. Estetik tarbiyani to'la amalga oshirmay turib axloqiy, g'oyaviy-siyosiy tarbiya asosida rivojlangan barkamol shaxsni voyaga yetkazib bo'lmaydi.

Talaba yoshlarda estetik ongni shakllantirish vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, o'quvchilarda ezgu xislat-fazilatlarini shakllantirish, onglik, faollik va ijodiy qobiliyatlarni o'stirish;

Ikkinchidan, yangi texnika va texnologiyalardan ta'lim-tarbiya jarayonida unumli foydalanish;

Uchinchidan, yangi bozor iqtisodiyoti sharoitida o'quvchilarning huquqiy bilimlarini oshirish va o'z huquqlaridan to'g'ri foydalanish ham estetik madaniyat darajasini yuksaltirishni taqazo etmoqda;

To'rtinchidan, o'quvchilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan tarbiyalash;

Beshinchidan, radio, matbuot, ayniqsa, «oynai jahon» kabi ommaviy axborot vositalarining turmushda keng o'rin olishi natijasida keskin ortib borayotgan axborotlardan to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini shakllantirish;

Oltinchidan, o'z tanlagan kasbidan zavqlanish, muammolarga asosli yechim topish, tushkunlikka tushib qolmaslik, atrofdagilar bilan samimiy munosabat o'rnatish uchun muomala madaniyatini tarbiyalash estetik tarbiyaga yanada ko'proq e'tibor berishni talab etmoqda.

Estetik tarbiya vositalari shaxsning voqelikka estetik munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat shakllaridir. Estetik tarbiya omillari va vositalari o'rtasidagi chegara nisbiy va shartlidir. Muayyan sharoitlarda estetik tarbiya omillari estetik tarbiya vositalari vazifasini o'tashi va aksincha bo'lishi ham mumkin. Yoshlarni go'zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to'g'ri tushunish olijanob his-tuyg'ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Yoshlarda go'zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, kishilarning xursandchiliklariga sherik bo'lish, qayg'usini birga baham ko'rish kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Ayniqsa hozirgi kunda ayrim yoshlar (ba'zi kattalar) o'rtasida ko'p uchrayotgan yasama “sun'iy go'zallik” (sun'iy qosh, kiprik, tirnoq, lab va yirtiq-yamoq, tor kiyimlar) bilan o'zlarini xunuklashtirayotganligi, haqiqiy go'zallikni

⁷ Umarov E. et al. Estetika asoslari//Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma oltinchi nashri. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – 2013. 211-212-b.

sun'iylikda ko'rayotganliklari achinarli holdir. Ular haqiqiy go'zallik yuzning tabiiy latofatida,

sodda va xushbichim kiyimda ekanligini tushunishmaydi yoki tushunishni xohlashmaydi. Bu ham yoshlarda estetik madaniyatning, estetik didning yaxshi shakllanmaganligidan darak beradi. Kishining tashqi go'zalligi kiyim ranglarining bir-biriga mos kelishida, tabiiylik va soddalikda yaqqol ko'rinadi. Ko'zga tashlanmagan holda husniga tabiiy latofat va nafosat beradigan, ayrim kamchiliklarini bilintirmay ketadigan ust-bosh kiygan inson ko'rkam va go'zaldir. Insonning did-farosati kiyim-boshida, xatti-harakatlarida, o'zini tuta bilishida ko'zga tashlanadi. Samimiy, oqko'ngil, o'ziga talabchan, tarbiyalangan inson tashqi ko'rinishida sun'iylik, qalbakilikni ko'rsatuvchi biron-bir bema'nilikka yo'l qo'ymaydigan tarzda kiyinishga, o'zini shunga munosib

tutishga harakat qiladi. Didli-farosatli kishi hamisha ana shu qiyofani saqlab qoladi. Tashqi qiyofaga e'tibor berish ichki, ma'naviy go'zallikning ifodasi hisoblanadi. Estetik taraqqiyot shaxsning estetik ongi va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida uzoq vaqtni talab etadigan jarayondir. Shaxsning estetik taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi. Bu har xil yo'llar va shakllar orqali amalga oshiriladi. Shaxsning estetik jihatdan rivojlanishida ta'lim va tarbiya hal etuvchi rol o'ynaydi. Xalq pedagogikasi estetikaning «go'zallik — hayot demakdir» degan qoidasidan kelib chiqib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotdagi, mehnatdagi, turmushdagi,

kishilar munosabatidagi go'zallikda ishtirok etishini, uning hayotni, san'atni idrok eta bilish qobiliyatini shakllantirishni o'zining bosh vazifasi deb hisoblaydi

Estetik tarbiyaning strukturaviy tarkibiy qismlari (Ta'lim jarayonida odatda quyidagi tarkibiy qismlar ajratiladi):

1. Estetik tarbiya. Jahon va milliy madaniyat bilan tanishishni, san'at tarixi bilimlarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

2. Badiiy va estetik tarbiya. U bolalarni ijodiy faoliyatga jalb qilishni, ularning didi va qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishni ta'minlaydi.

3. Estetik o'z-o'zini tarbiyalash. Uning jarayonida inson o'zini takomillashtirish bilan shug'ullanadi, mavjud bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtiradi.

4. Bolaning estetik ehtiyojlarini, shuningdek, uning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash. Insonda go'zallikga bo'lgan ishtiyoq, o'z-o'zini namoyon qilish orqali dunyoga yangi narsalarni olib kirishni istash kerak.

Oliy ta'lim tizimida ham estetika fani o'z ahamiyatiga ega. Chunki, insonning nafosat olamini anglashga intilishi, atrof-voqelikni anglashga intilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Estetika fani voqelikni estetik mushohada qilish va badiiy ijod jarayonlarining uzviy mutanosibligini namoyon qiladi va ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, estetika — bu nafosat olami, san'at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his-tuyg'u, sezish-idrok qilish vositalari orqali o'rganadigan va o'rgatadigan fandır.

Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarda badiiy estetiklikni shakllantirish uchun, o'quvchilarni muntazam ravishda muzey, ko'rgazmalarga, konsertlarga va mahalliy diqqatga sazovor joylarga olib borish; san'atga, badiiy adabiyotlarni o'qishga qiziqish uyg'otish; klassik musiqa nomoyondalari bilan tanishtirish va muntazam ravishda tinglash, baholash, unga munosabat bildirish janr va uslublarni ajratishni o'rgatish, tasviriy san'at bilan shug'ullanishni rag'batlantirish, sport bilan shug'ullanishni yo'lga qo'yish talab etiladi. Bu ishlarni to'g'ri amalga oshirish uchun o'qituvchi va ota-onalarni ham san'at va go'zallikni chuqur his qiladigan, tushunadigan, o'z munosabatini bildira oladigan, estetik va axloqiy madaniyatga ega, vaziyatga to'g'ri baho bera oladigan shaxs etib tarbiyalash lozim.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiya ijtimoiy faol, har tomonlama va hamohang rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsadiga xizmat qiladi. Yoshlarni har tomonlama ham aqlan, ham jismonan barkamol, axloqan yetuk, ma'naviy pok, estetik idrokli qilib tarbiyalashdek muhim va dolzarb muammolarni hal etishni taqozo qiladi. Estetik madaniyat milliy ongini, ma'naviy uyg'onish va taraqqiyotni nazarda tutuvchi omillardan biri bo'lib, u ulkan ijtimoiy vazifani bajaradi. Talabalarda erkin fikrlash, uning atrofida go'zallik yaratishga intilishni shakllantirishga alohida e'tibor berilishi kerak. Shunda u zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslasha oladi va unga foyda keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son)

2. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi pf-89-son farmoni tahririda — qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son*

3. Umarov E. et al. Estetika asoslari//Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma oltinchi nashri. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – 2013.

4. Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari Ta'lim berish texnologiyasining modeli (fayllar.org).

5. Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Shaxsning estetik madaniyatini shakllantirish jarayoni (istanbulbear.org).

6. Xayrullayeva Z. S. Klasterli yondashuv asosida o'quvchilarda badiiy estetiklikni shakllantirish //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 3. – C. 284-288.